

RAQAMLI IQTISODIYOT VA INVESTITSIYALAR

Katta o’qituvchi Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotasiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalar, ularning davlat rivojida o’rni va ahamiyati, investitsiyalarni jozibadorlik xususiyatlari, mamlakat iqtisodiyotida va uning bugungi kunda hamda istiqbolda ham barqaror rivojlanishida investitsiya jarayonlarining muhim ahamiyati to‘g’risida to‘xtalib o’tilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiyalar, to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot, investitsion jozibadorlik, investitsiya siyosati

Investitsiyalar, jumladan, to‘g’ridan-to‘g’ri xorijiy investitsiyalar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot global ishlab chiqarish va investitsiya modellarini o‘zgartirmoqda. Raqamli iqtisodiyotga jalb qilingan xalqaro investitsiyalar ishchi kuchining pastligi kabi omillarga kamroq bog‘liq bo‘lib, ko‘proq infratuzilma holati, ishchi kuchi va arzon energiya mavjudligi kabi omillarga bog‘liq.

Har qanday mamlakatning iqtisodiyotida va uning bugungi kunda hamda istiqbolda ham barqaror rivojlanishida investisiya jarayonlari muhim ahamyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat investisiya siyosatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- Jahon bozorida qulay konyukturaning saqlanishi uchun keng miqyosda ko‘maklashish;
- Foiz stavkalarini iqtisodiyotning real sektoridagi investisiylarning tegishli samaradorligi mos keluvchi darajagacha pasaytirish;
- Bozor sub’ektlarining investision imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan soliq islohotlarini amalga oshirib borish;
- “Samarali mulkdorlik” masalalarini hal etgan holda tashkilotlarning investision jozibadorligini oshirish;
- Investorlar huquqlarini himoya qilishning qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlash asosida investision xavf-xatarlarni pasaytirishning tashkiliy-huquqiy omillarini shakillantirish;
- Mamlakat hududlarining investision jozibadorligi darajalari o‘rtasidagi farqlarni qisqartirish;
- Byudjetdan ajratiladigan investisiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ulardan maqsadli va samarali foydalanishni davlat tomonidan nazorat qilishni kuchaytirish.

Davlat investisiya siyosati respublika, viloyatlar va tarmoqlar miqyosida shakillantiriladi va amalga oshiriladi. Investisiyalarni boshqarishning yagona tizimi chora-tadbirlardan iborat bo‘lgan, alohida hududlar darajasida amalga oshiriladigan, investisiya resurslarini safarbar qilish va ulardan hududlarning manfaatlaridan kelib chiqgan holda

5-May, 2025-yil

yuqori samarali foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash imkoniyatini beruvchi hududiy investitsiya siyosati muhim ahamyat kasb etadi.

Mamalaktimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar xalqaro hamjamiyat bilan iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda u yoki bu sohani davlat tomonidan tartibga solishda yetarli darajada ehtiyyotkorlikni talab etadi. Shu nuqtai nazardan hududiy rivojlanish muammolarini hal etishda, ayniqsa hududlarda investisiya jarayonalarini rivojlantirish va alohida hududlarning investision jozibadorligini oshirishda islohotlarning hozirgi bosqichi talablariga to‘g‘ri keladigan yangi mexanizmlar va yo‘nalishlarni topish maqsadga muvofiqdir.

Shu munosabat bilan investitsiya, investitsiya jarayonlari, investitsion jozibadorlik va hududlarning investitsion jozibadorligi masalalari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining tayanch omili sifatida e’tirof etiladigan xorijiy investitsiyalarini jalb qilish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarining ahamiyati benihoyat katta bo‘lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamонавиу texnika va texnologiyalarini joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- ikkinchidan, import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarini iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltirish va pirovardida aholining me’yordagi turmush darajasini ta’minlash imkonini yaratadi;

- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta’minlaydi;

- to‘rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya’ni neft va kimyo sanoati, transport, energetika, yer osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishslashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda ham investitsion muhitni yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarini jalb etish, qulay investitsion sharoitlar yaratish, ayniqsa imtiyozlar va preferensiylar bilan ularning ishonchli huquqiy himoyasi va kafolatlarini ta’minlashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so‘ngi yillarda mamlakatimizda investitsiya jarayonlarini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan islohotlarni ko‘zlangan mukammal ko‘rinishga keltirish uchun Respublika miqyosida hududlarni kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda va o‘z navbatidan qonun osti hujjatlar bilan huquqiy tomondan kafolatlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ganiev S.K. va boshq. Axborot xavfsizligi. T.: Aloqachi 2008. 383-b.
2. Iminova N.A. Risk menejment. O‘quv qo‘llanma.T.: “Aloqachi”, 2017,-184 b.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Белох Л.П. Реструктуризация предприятия. Учебное пособие. – М.: YuNITI-DANA, 2009. – 511 str.
2. Iminova N.A. Aloqa va axborotlashtirish sohasida iqtisodiy risklarni boshqarish. Diss. I.f.n. Toshkent, 2012.
3. Muhiddinov X.A. O‘zbekistonda telekommunikatsiya xizmatlari bozori rivojlanishining moliyaviy masalalari («O‘zbektelekom» AK misolida). Diss.i.f.n. – Т., 2006.
4. Никонов В. Управление рисками. Как больше зарабатывать и меньше терять. - М.: Алпина Паблишерз, 2009. S. 284.
5. Просветов Г.И. Экономика предприятия: задачи и решения. Учебное практическое пособие. – М.: «Alfa-Press», 2009. – 560 str.
6. Рейман Л.Д., Совершенствование системы государственного регулирования отрасли телекоммуникаций. -Санкт Петербург, 2000.

AXBOROT MANBAALARI:

www.economics.ru
www.ved.ru
www.uza.uz
www.Lex.uz
www.ziyonet.uz